



# TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI IDROK ETISHDA IJODIY

## FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Kodirov Obid Esonboy o‘g‘li*

*Navoiy davlat universiteti*

*Email: [art.obid13@gmail.com](mailto:art.obid13@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etish orqali talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlanishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, san’at asarlarini tahlil qilish jarayonida talabalar ongida estetik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi usullar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy san’at, badiiy idrok, ijodiy fikrlash, metodika, tahlil, estetik tafakkur.

### **Kirish.**

Bugungi kunda ta’lim tizimida insonning individual salohiyatini ochib berishga qaratilgan metodik yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tasviriy san’at sohasida talabaning badiiy idrokini chuqurlashtirish, tasavvurini boyitish va ijodiy fikrlash faoliyatini shakllantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mashhur fransuz rassomi Anri Matisse aytganidek: “San’at – bu ko‘rganing emas, balki his qilganingni ifoda etishdir.” Bu ibora badiiy idrok jarayonida tafakkur va hissiyot uyg‘unligini ta’lim jarayoniga tatbiq qilish muhimligini anglatadi.

### **Asosiy qism**

#### 1. Badiiy idrok va ijodiy fikrlashning o‘zaro bog‘liqligi

Badiiy idrok – bu san’at asarining tashqi shakli va ichki mazmunini tushunish, uni tafakkurda qayta ishlab, estetik jihatdan baholash jarayonidir. Bu jarayon faqat ongli idrok emas, balki tasavvur, tahlil, emotsional his qilish va fikr yuritishni ham talab qiladi.



Ijodiy fikrlash esa insonning mavjud bilim va tajribalarini o‘ziga xos tarzda yangilab, o‘ziga xos g‘oyalar orqali ifodalash qobiliyatidir. Tasviriy san’at bilan ishslash jarayonida bu ikki jarayon bir-birini to‘ldiradi.

### 2. Ijodiy fikrlashni shakllantirishda qo‘llaniladigan metodikalar

Talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:

Tahliliy suhbat – san’at asari asosida erkin savol-javob, gipoteza va tahlil ishlari orqali mustaqil fikrlashga yo‘naltirish.

Komparativ tahlil – turli davrlardagi asarlarni taqqoslab, ularning uslubiy, kompozitsion, mazmuniy o‘ziga xosliklarini aniqlash.

Assotsiativ fikrlash – talabani san’at asaridan ilhomlanib, o‘z tasavvuridagi obrazlarni yaratishga rag‘batlantirish.

Rol o‘ynash (dramatizatsiya) – talabani o‘zini rassom, san’atshunos yoki asar qahramoni sifatida his qilishga undash.

Shuningdek, mashhur pedagog A.S. Makarenko ta’kidlaganidek: “Tarbiya jarayoni har bir daqiqada, har bir tafsilotda amalga oshadi.” Bu fikr san’at asarlarini idrok ettirishda har bir detalga e’tibor qaratish, uni tahlil qilish orqali ijodiy tafakkurni o‘stirish zarurligini ko‘rsatadi.

### 3. O‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlar roli

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar katta joyda ega. Talabalar o‘z kompozitsiya tahlillarini yozishda klassik asarlarni qilib, ulardan o‘z kompozitsiyalarini o‘zida namoyon qiladi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchi texnik malakalarni egallaydi, balki badiiy tafakkurini chuqurlashtirish, tasvirlash, rang belgilash, kompozitsion echim topish kabi ijodiy jarayonlarga ongli ravishdagi yondashishni o‘rganadi.

Bunday mashg‘ulotlar san’at asarining estetikasini chuqurroq anglashga, talabaning individual dunyoqarashi va hissiyotlarini san’at tili orqali ifodalashiga imkon beradi. Bundan tashqari, amaliy faoliyat asosida klassik va zamonaviy asarlar



o‘qishdagi qiyosiy tahlilni amalga oshirish, baholash uslubiy tajriba solishtirish, talabalar va tanqidiy-estetik fikrni boshqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu maqsadda qaralganda, amaliy mashg‘ulotlar ijodiy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarni san’atni chuqur anglashga, estetik elementlarni qadrlashga va o‘z ijodiy qobiliyatini erkin ifodalashga o‘rgatadi.

Misol uchun, rus rassomi V.I. Surikovning “Boyarinya Morozova”, asari asosida kompozitsion tahlil mashg‘ulotlari tashkil etilib, talabaga ushbu sahnani zamonaviy talqinda ifodalash topshirig‘i beriladi. Natijada, ular faqat nusxa ko‘chirish emas, balki o‘z ijodiy qarashlarini ifodalashni o‘rganadi.

### **Xulosa:**

Tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limda ijodkor, estetik didli, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishda muhim omildir. Mazkur maqolada keltirilgan metodik yondashuvlar pedagogik faoliyatda samarali qo‘llansa, talabalarda nafaqat badiiy tafakkur, balki chuqur estetik dunyoqarash shakllanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kodirov, O. (2023). THE IMPORTANCE OF CONNECTION CREATING ART WORKS IN INTERDISCIPLINARY. Science and innovation, 2(B2), 373-375.
2. THE ROLE OF SELF-PORTRAIT IN PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERSF Shodiev, O Kodirov Science and innovation 2 (B4), 444-447, 2023
3. Махмудов Н.Р. “Бадиий идрок ва эстетик тарбия” – Тошкент: Фан, 2015.
4. Мамарасулов Қ. “Тасвирий санъат дарсларида ижодий фаолиятни ривожлантириш” – Самарқанд: СХТ, 2020.
5. Matisse H. Quotes on Art and Expression, 1940.
6. Kodirov O. E. THE ROLE OF THE COMPARATIVE ANALYSIS METHOD IN THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC PERCEPTION/ Scientific methodical journal volume 6 issue 2 march 2025 727-731
7. Макаренко А.С. Педагогическая поэма – Москва, 1933.



8. Bobomurodova S. A. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – С. 73-82.
9. Савицкая Н. Психология художественного восприятия – Санкт-Петербург, 2008.